



G‘AFUR G‘ULOM SHE’RIYATI TAHLILI

Mahmudova Arofatxon

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Har qanday badiiy asar o‘zining yashirin ma’nosiga ega. Kitobxonga bir qarashda ko‘ringan ma’no har doim ham asarning asl mazmuni haqida so‘zlamaydi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tahlil, jadidchilik, tahlilchi, dunyoqarash, fikrlash*

ASOSIY QISM: Badiiy tahlil o‘zi nima?

Badiiy tahlil nima uchun kerak?

Yuqoridagi kabi savollar ko‘plab kitobxonlarda paydo bo‘lishi tabiiy. Nima sababdan badiiy tahlil kerak? Har bir kitobxon asarni o‘zicha tushunib tahlil qilsa ham bo‘ladiku... Albatta, har bir kitobxon asarni o‘qiyotganda o‘z dunyoqarashi, fikrlashi bilan tahlil qiladi. Har bir kitobxon o‘zicha tushunsa, adabiyotshunoslarning tahlili nima uchun kerak? Adabiyotshunoslarning tahlillari o‘quvchiga yo‘nalish berish uchun kerak. Har kim ham kitobni bir marta o‘qishdayoq tushunmasligi mumkin. Asarda nima haqida gap ketmoqda, nima ma’noni kuylamoqda, nima ma’noni qoralamoqda, nimani ko‘kka ko‘tarib, nimani yerga urmoqda?.. Tahlilchi aynan shularni tushunish uchun qaysidir ma’noda eshik kalitini o‘quvchiga tutqazib beradi.

Badiiy tahlil nafaqat nasriy asarlar uchun, she’rlar uchun ham juda zaruriy jihat hisoblanadi. Chunki she’riyatda ham tahlil talab qiluvchi jumlalar, qaysidir ma’noda “kosa tagidagi nimkosa”lar juda ko‘p. Jadidchilik harakati vakillarining asarlari aynan shunga misol bo‘la oladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Tavallo, Abdulla Qodiriy kabi adiblarimizning she’rlaridagi jumlalarda buni ko‘rishimiz mumkin.

Hozir to‘xtalishni maqsad qilganimiz, G‘afur G‘ulom she’rlarida ham juda go‘zal tahlillar bor. Tanlaganimiz “Sog‘inish” she’ri ham juda tahlilbop asar va u shoir ijodidagi eng mashhur she’rlaridan biri.

Sog‘inish

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh,
Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.

Minglab tuyalarga ega karvon yo‘lida onasini yo‘qotgan yetim bo‘taloq kabi shoir ham ko‘zlarida halqa-halqa yosh bilan atrofga jovidiramoqda. Kimdan so‘rashga o‘ylanib, oxiri eng kichik zarradan tortib yupitergacha, yirik sayyoragacha nuri bilan yetib borgan Quyoshdan so‘ramoqda. Chunki uzilgan kiprikni ham ko‘rib turgan – Quyosh, o‘scha kiprik yo‘qolmaydi, chunki Quyoshning nigohi mustahkam, uning



nuridan qochib qutilish imkonsiz. Ushbu baytda qaysidir ma'noda Yaratganga ishora bor desak ham bo'ladi. Chunki hamma narsani bilguvchi va ko'rguvchi zot faqatgina Yaratgandir.

Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan,
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim.
Bir mal'un gulshanga qadam qo'y mishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

Qishda nafas olib yotgan yer bugun sabza bo'ldi, yashil maysaga burkandi va inson vujudida ham ertangi kunga umid kezmoqda. Bu yerda aynan tabiat hodisasi haqidagina gap ketib qolmay, urush nafasi pasaymoqda, g'alaba iforlari kelishni boshlagan degan ma'no ham ilgari surilgan. Va aynan o'sha paytlarda, xoki anjir tugab, qovun pishgan mahalda, baxtli tongotar chog'da o'z farzandini urushga kuzatmoqda. Farzandi shunday mal'un – la'natlangan joyga qadam qo'yar ekan joni bir bo'lib ketgan jondoshlari, ota-onasi, yaqinlari jim turarmidi, yuzida hech bir hissiyotni ifoda etmasada ich-ichidan yig'laydi.

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab o'zimday mag'rur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi.

Shoir farzandiga o'zidan meros bo'lib o'tgan mag'rurlik, ya'niki har qanday ko'rgilikka ham sabr bilan chidash hissiyoti kuchli ekanini ta'kidlamoqda. Ostonani o'pib qilingan qasamyod esa uyni ham, oila a'zolarini ham sharmanda qilmaslik uchun ichilgandir. Jangga ketayotganda ham yaqinlarini, ukalarini huddi otasi kabi mag'rur erkalatmoqda, g'alaba bilan qaytish va'dasi bilan ularga dalda bermoqda. "Men jangga ketyapman, o'lanmanmi, qolamanmi, noma'lum" deya uyni azaga aylantirib emas, yuraklarga ekilgan umid bilan dillarni shod qilib ketmoqda.

Iblisning g'arazi bo'lган bu urush
Albatta yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon keladi, g'olib, muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Urush insonning maqsadi emas, iblisning g'arazli ishidir. Kun kelib, albatta, o'zining boshiga yetadi. O'g'lim g'alaba bilan qaytadi. U shunday qaytadiki, hatto qora qoshiga chang ham qo'nmag'an bo'ladi. Ya'ni mening farzandim dushmanidan ko'ra kuchli, u ezgu niyatda yo'lga chiqdi va ushbu niyati yo'lida albatta zafar quchadi - deya shoir umid qilmoqda.

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor.
Kutaman, uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko'rinsa g'ubor.



Nima bo‘lganda ham men uning otasiman, unga mendan hissiyotlar ham meros bo‘lib o‘tgan. U ham inson, uning ham sog‘inishga haqqi bor. Axir men bu yodda uni sog‘inyapmanku, uzoqdan kimdir ko‘rinsa huddi u kelayotgandek quvonib ketaman.

Bahor novdasida bo‘rtgan har kurtak

Sog‘ingan ko‘ngilga berar tasalli.

Ko‘chatlar qomati eslatganidak,

Nafasin ufurar tong otar yeli.

Bahor novdasida ochilishga urinayotgan kutraklar, ya’ni yurakdagi umid shoir ko‘ngliga tasalli beradi. Navnihollar farzandining qomatini eslatsa, sabo uning nafasini keltirgandek tuyiladi.

Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,

Qo‘msayman birovni – allakimimni.

Doimo umidim bardam bo‘lsa ham,

Ba’zan vasvasalar bosar dilimni.

O‘zbek qozoni hamisha to‘la qaynaydi. Unda oilaning har bir a’zosiga atalgan nasiba bo‘ladi. Aynan shunday paytlarda tovoqda qolgan bir kosagina osh kimningdir nasibasi. O‘sha kimdir esa bu shoirning jangdagi o‘g‘li. Tovoqda qolgan oshga termulib uni qumsaydi, umidi doim bardam, faqat yaxshilikni kutgan bo‘lsa ham ba’zida dilini vasvasalar bosadi. Jangdagi daydi o‘q tegmadimikin, dushman qo‘liga tushmadimikin, ochlikdan sillasi qurimadimikin deb...

O‘rog‘ -u gulqaychi, istak ko‘tarib,

Hovrimni bosishga boqqa jo‘nadim.

Hasharchi qo‘shni qiz – uning sevgani,

Ma’yus bosar edi orqamdan odim.

O‘roq, gulqaychi bilan yuragidagi hovrini bosish uchun shoir endi boqqa ketmoqda. Unga yordamlashgani esa o‘g‘lining sevgilisi – qo‘shni qiz ergashmoqda.

Sizlarni, keldi, deb eshitgan kuni

O‘zing to‘qib ketgan katta savatda,

To‘latib shaftoli uzib chiqaman,

G‘alaba kunlari yaqin albatta.

Urushdan askarlar qayti deb eshitgan kuni shoir o‘g‘li to‘qib ketgan savatda bog‘dan shaftoli uzib chiqishni niyat qiladi va ushbu jumlalar orqali kelajakka bo‘lgan niyati qanchalar ulug‘vor ekanini ifodalamoqda. Darhaqiqat, urush aynan shaftolilar pishgan mahalda tugaydi va askarlar qaytadi.

Bog‘da tovus kabi xiromon bo‘lib,

Umid danagini birga ekingiz.

G‘olib kelajakni sayr qilaylik

Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

Ushbu bog‘ otadan farzandiga meros. Suyukli yori bilan ushbu bog‘da umid danagini ekishini tilamoqda va g‘olib kelajakni ayoli bilan birga sayr qilishni istamoqda.

Shoirning niyati g‘oyat ulug‘, ammo taqdir uni farzandidan ayiradi. Urushga ketgan o‘g‘li jangda bedarak yo‘qoladi. Ammo otasiga buyuk bir g‘alabani yuboradi.



Yuqoridagi tahlilda ba'zi misralar keltirilmagan. Biz ularni kitobxonning o'ziga havola qilmoqchimiz. Ushbu tahlil orqali o'quvchi ongida G'afur G'ulom ijodiga qiziqishni oz bo'lsa-da oshira olgan bo'lsak biz maqsadimizga yetdik. Adibning nafaqat she'rlari, balki nasriy asarlari ham go'zal tahlillarga boy. G'afur G'ulom faqat o'zbek adabiyotining emas, balki jahon adabiyotining ham yetuk vakili desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr – 2021
2. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar – 2020
3. G'afur G'ulom. She'rlar – 2016
4. kitoblardunyosi.uz sayti
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. kitobxon.com sayti
7. Maqolani yozishda asosan ijodiy yondashildi